

NUTQ NUQSONLARI BO'LGAN BOLALARNI TA'LIM-TARBIYA JARAYONIGA INTEGRASIYALASH

Rahimova Mahliyo Ilhomjon qizi

Namangan davlat universiteti Maxsus pedagogika (logopediya) 4-bosqich talabasi.

Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi

Xusanov Azamjon

Anotatsiya. *Maqolada nutq nuqsonlari bo'lgan bolalarni ta'lim va tarbiya jarayonida integratsiyalash mexanizmlari va ushbu jarayonlarning bunday bolalar uchun qanday afzaliklar yaratilishi xususida.*

Tayanch so'zlar: *integratsiya, ijtimoiy adaptatsiya, inklyuziv ta'lim*

МЕХАНИЗМЫ ИНТЕГРАЦИИ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС

Аннотация. *В статье речь идет о механизмах интеграции детей с нарушениями речи в процесс обучения и воспитания и какие преимущества эти процессы создают для таких детей.*

Ключевые слова: *интеграция, социальная адаптация, инклюзивное образование.*

KIRISH

Turli yoshdagi yoshidagi (maktab va maktabgacha) nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarning ijtimoiy o'qitilishi, ta'limiy tarbiyalanishi bilan bir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarni maxsus va ta'lim muassasaga joylash bilan kifoyalanib qolinmaydi. Nutq nuqsoniga ega bolalarda ta'lim va tarbiya jarayonida turli xil metodologik asodlardan fodalanish muhi rol hisoblanadi. Bunda ta'lim va tarbiya jarayonida integratsiyalash ijobiy usul bo'lib xizmat qiladi.

“Integratsiya” tushunchasi ingliz tilidan olingan bo'lib, integrative— qo'shiluvchi, birlashuvchi, integration —qo'shilish, birlashish degan manoni bildiradi. Volferen Bergeming yozishicha: “Integration talim bu - segregason talimning aksi bolib, bunda maxsus ehtiyojga ega bolalar umumtalim muassasalari tizimiga kiritiladi”.

Integratsiya tushunchasi keng, ma'noda ijtimoiy integratsiya yoki jamiyatga integratsiya va pedagogik integratsiya yoki ta'limga integratsiyani o'z ichiga oladi. Ijtimoiy integratsiya-rivojlanishida nuqsoni bolgan bolani ijtimoiy munosabatlar va xatti-harakatlarning umumiy tizimiga ijtimoiy adaptatsiyasidir.

Asosiy qism. Alohida yordamga muhtoj bolalarni jamiyatga integratsiyasi muammosi bir tomondan, psixik va jismoniy rivojlanishida kamchiliklarini mavjudligi bilan, ikkinchi tomondan ijtimoiy munosabatlar tizimini esa mukammal emasligi, ya'ni ba'zi talablarini malum darajada keskinligi hayot faoliyati cheklangan bola uchun o'ta olmaydigan to'siqqa aylanishi bilan ifodalanadi. Nogironlarni jamiyatga integratsiyasining ikki yondashuvi mavjud. Birinchi

yondashuv nogironni jamiyatga integratsiyasini mavjud atrof-muhit shart-sharoitlarga moslashishini nazarda tutadi. Albatta, mazkur yondashuv bir tomonlama va juda tordir. Ikkinchi yondashuv nogironni jamiyatga kirishga tayyorlash va jamiyatni nogiron bolani qabul qilishga tayyorlashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy adaptatsiya - o'zgaruvchan hayot sharoitlariga insonni moslashish qobiliyati bo'lib, u ijtimoiylashuv va integratsiyaning muhim mexanizmidir. Ijtimoiy adaptatsiya turli faoliyatlar (o'yin, muloqot, o'qish, mehnat) va insonni o'zini anglash jarayonida amalga oshadi. Mazkur faoliyat turlari bir vaqtning o'zida hayotning turli bosqichlarida adaptatsiya vositalari, maqsadlari va natijalari sifatida xizmat qiladi.[1]

Nutq nuqsonlari bor bo'lgan bolalarga ta'lim va tarbiyalash jarayonida integratsiya mexanizmlari albatta samarali usullardan hisoblanadi. Hozirda davlatimiz tomonidan inklyuziv ta'limning joriy etilishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Prezidentning tegishli (PF-152-son, 30.09.2024 y.) Farmoniga ko'ra, 2025-yil 1-yanvardan:

– barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida malaka oshirishning “Metodik mahorat soati”, tayanch maktabgacha ta'lim tashkilotlarida esa “Metodik mahorat kuni” kabi shakllari bosqichma-bosqich joriy etiladi;

2025-yil 1-yanvardan tajriba-sinov tariqasida har bir tuman (shahar)dagi bittadan umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim guruhlari ochiladi.[2] Bu esa nafaqat nutq kamchiligi bor bolalar uchun alohida yordamga muhtoj bolalar uchun ta'lim va tarbiya jarayonining kichik yoshdan egallash imkonini yaratib beradi.

Integratsiyalashgan ta'lim nafaqat o'quvchiga balki o'qituvchining ham dars jarayonini samaradorligini oshiradi. O'quvchilarda (nutq kamchiliklariga ega) darsni egallash bilan bir qatorda korreksion jarayon ham olib boriladi.

Integratsiyalashgan ta'lim tizimining samaradorligi quyidagilarda yaqqol sezilarli ko'rinadi

- o'quvchilarda korreksion ish jarayonidagi bilim ko'nikmalarini egallashda qulaylik
- bolalarda ham tarbiyaviy ham ta'limiy jarayonlarni teng olib borish
- bola dunyoqarashini kengaytirish
- darsda va darsdan keyin faol mustaqil ishlash uchun o'quvchilarning bilim qiziqishlarini rivojlantirish

Xulosa va taklif. Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, ta'lim va tarbiya jarayonida yangi usullardan zamonaviy yondashuvlarni qo'llash, jahon andozalaridan foydalanish muhim rol o'ynaydi. Shu xususdagi ayniqsa nutq nuqsonli bolalarda ham uyg'unlashgan korreksion ta'lim, integratsiya jarayonlari katta ijobiy natijalarni beradi desa mubolag'a bo'lmaydi.

Bolalar bilan korreksion ish olib bo'rish, rejalashtirish jarayonlarida logoped yangi usullardan foydalanishi lozim chunki har bir bola idividual xususiyatga ega. Integratsiyalashgan ta'lim esa bunga juda ijobiy natijalarni bera oladi. Logoped doimiy bola bn mashg'ulot olib borish davrida turli o'yinlardan , syujetli rasmlardan foydalanishi ham bu integratsiyaning bir usuli hisoblendi. Logoped doimiy yangilanishda , izlanishda bo'lishi lozim eine.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Maxsus pedagogika. M. Po'latova.
2. Prezidentning tegishli (PF-152-son, 30.09.2024 y.) farmoni.
3. M. Ayupova. Logopediya. Pedaagogika universitet hamda institutlarining bakalavr va magistr yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalari uchun darslik sifatida tavsiya eiltgan.
4. M.U. XAMIDOVA MAXSUS PEDAGOGIKA
5. <http://namdu.uz> Elektron kutubxona.